

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabalari
tomonidan Yurtimizning ardoqli shoiri G'ofur G'ulom 120 yoshi
munosabati bilan "Zamona soati zang urgani uchun" nomi bilan
o'tkazilgan tadbir bayonnomasi

BAYONNOMA

Sana:

11.05.2023

Qatnashuvchilar: Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Instituti prorektori
M.Mirzayev Ona tili va adabiyot kafedra mudiri S.Amirqulov ,kafedra
o'qituvchilari J.Ubaydullayeva ,N. Nabiyeva B.Eshmirzayev,R
Mamatmurodov ,A,Boymirzayev hamda talaba yoshlar.

Kirish.

1.Tadbirni ochib berish uchun so'z Denov Tadbirkorlik va Pedagogika
Instituti prorektori M.Mirzayevga berildi.Ular G'afur G'ulom hayoti va
ijodi haqida ma'lumotlar berib o'tdilar

Asosiy qism .

Tadbir filologiya tillarni o'qitish o'zbek tili 2-bosqich talabalari va
o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchi Nabiyeva N.S tomonidan otkazilddi
G'afur G'ulom (1903-yil 10-may — 1966-yil 10-
iyun) — o'zbek yozuvchisi va shoiri. 1903-yilning 10-
mayida Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida dehqonlar
oilasida tug'ilgan. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan
yetim qolgan G'afur G'ulom avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem
maktabida ta'lim olgan. 1916 yilning kuzida G'ofur o'qishga kiradi.
Onasining vafotidan so'ng (otasi avvalroq vafot etgan), u ishlashga
majbur bo'lgan. Ko'plab kasblarda o'zini sinab ko'rgach, u nihoyat,
matbaaga harf teruvchi bo'lib ishga kiradi, so'ngra, pedagogik kurslarda
tahsil oladi. Toshkent pedagogika institutini tamomlagan.1919 yildan
1927 yilgacha u o'qituvchi, maktab direktori, Ma'naviyat uyushmasi
ishchilari raisi bo'lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok
etadi. „Shum bola“ (1936) avtobiografik qissasida ijodkorning bolaligi,
asr boshidagi Toshkent hayoti tiniq tasvirlangan.

. O'zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri G'ofur G'ulom
120 yoshda. G'ofur G'ulomning she'riyati va nasrida o'zbek xalqi tarixi

o‘zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang bo‘lib, she‘rlar, qo‘shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalarni tashkil etadi. G‘ofur G‘ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o‘zbek adabiyoti rivojida beqiyos o‘rin tutgan. Yorqin ijodkorning xotirasini yod etish maqsadida kecha Filologiya fakultetida "Zamona soati zang urgani uchun" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda yozuvchining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar, yozgan asarlaridan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Ming bo‘lakka bo‘lib dunyoni

Tug‘ilgandan baxtni izlaymiz

Qo‘llaridan tutib rayoni

Atrofni baxt, ba‘zan bilmaymiz!



Talabalar G‘ofur G‘ulom hayoti va ijodi haqda gapirib o‘tdilar uning ijodidan namunalar keltirib sahna ko‘rinishlar olib chiqdilar, hamda go‘zal raqslar ham ijro etdilar



1943-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy a'zo bo'ldi. Akademik sifatida u adabiyot tarixini, yozuvchilar ijodini („Navoiy va zamonamiz“ (1948), „Folklordan o'rganaylik“ (1939), „Jaloliddin“ dramasi haqida“ (1945), „Muqimiy“ (1941) yoritib berdi.

Vatan himoyachisi mavzusi G'ofur G'ulomning 1941 - 1945 yillardagi keyingi ijodida yanada rivojlandi va chuqurlashdi . Shu bilan bir qatorda, u odamlarni “bor sabri, bor iqtidori”ni fashistlar ustidan g'alabaga qaratishga chorlaydi. Shoir urushdan keyingi davrlardagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'zbek ayolining rolini alohida ta'kidlab o'tdi.



Urush yillarida Gʻofur Gʻulom “Sen yetim emassan”, “Seni kutyapman, oʻgʻlim!”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Ayol”, “Bizning koʻchada ham bayram boʻlajak” kabi ajoyib sheʼrlar yaratgan. “Seni kutyapman, oʻgʻlim!” sheʼrida shoir front ortida oʻzlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan gʻalabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi.



Gʻofur Gʻulom ijodining urushdan keyingi davri oʻzbek adabiyoti rivojida muhim oʻrin egalladi. Urushdan avvalgi davrlarda uning sheʼrlarida urushdan oldin ular tomonidan yaratilgan narsalarni qoʻlda qurol bilan himoya qilayotgan, yerda tinchlik istayotgan odamlarning ichki kechinmalari va oʻy-xayollari tasvirlangan. Shoirning urushdan keyingi davr lirikasi uning urush yillar lirikasining mantiqiy davomi va rivoji hisoblanadi, “Unutma, Vatan seni kutmoqda!” va “Gʻalaba bayrami” sheʼrlari — shoirning mazkur ikki ijodiy davrining bogʻlovchi halqasi kabidir.

Gʻulom 1966-yilning 10-iyunida vafot etdi. Chigʻatoy qabristoniga dafn etildi.

Tadbir soʻngida tadbir qatnashuvchilarini taqdirlash boʻlib oʻtdi.

Qaror qilindi :

- 1.Talaba yoshlarni kitob oʻqishga jalb qilinsin.
- 2.Barcha guruhlarda kitobxonlik davralari tashkil qilinsin .
- 3.Guruhlar oʻrtasida bagʻishlangan tadbirlar oʻtkazilsin .

Rais:

S.Amirqulov

Kotiba:

M.Qobilova

